

**TARBIYA JARAYONIDA XXI ASR KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI****Abdulfattoyeva Iroda**

DTPI Pedagogika fakulteti

Pedagogika yo'nalishi 8-P-22 guruh 4-bosqich talabasi

Irodaabdufattoyeva21@gmail.com

Tel: +998915832904

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya jarayonida XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishning ahamiyati tahlil qilinadi. XXI asrda inson kapitalini rivojlantirishda eng muhim kompetensiyalardan biri sifatida ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatining yuqori darajada shakllanganligi e'tirof etiladi. Mazkur kompetensiyalar zamonaviy insonning innovatsion fikrlashi, muammolarni tizimli tahlil qila olishi, asoslangan xulosalar chiqarishi hamda mustaqil qaror qabul qilish salohiyatini namoyon etadi. Pedagogik nazariya va amaliyotda ijodiy hamda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi uzoq yillardan buyon dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelayotgan bo'lsa-da, XXI asr sharoitida ushbu muammo yangi pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida qayta talqin etilmoqda.

Abstract: This article analyzes the importance of developing 21st-century competencies in the educational process. In the 21st century, a high level of creative and critical thinking ability is recognized as one of the most important competencies in the development of human capital. These competencies reflect a modern individual's ability to think innovatively, analyze problems systematically, draw well-grounded conclusions, and make independent decisions. Although the development of creative and critical thinking skills has long been considered a significant issue in pedagogical theory and practice, in the context of the 21st century this issue is being reconsidered on the basis of new pedagogical and psychological approaches.


Kalit so'zlar: Tarbiya, pedagogika, o'quv jarayoni, bilim olish, innovatsiya, kommunikatsiya, tanqidiy fikrlash.

Keywords: Education, pedagogy, learning process, knowledge acquisition, innovation, communication, critical thinking.

Kirish Zamonaviy globallashuv jarayonlari hamda fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim sohasiga yangi yondashuvlarni joriy

etishni talab etmoqda. Hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyoti hamda innovatsion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratib bermoqda. Ular oldiga tezkor qaror qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni rivojlantirish bilan bir qatorda milliy va umum insoniy qadriyatlarga sodiq bo'lish kabi hayotiy talablar qo'yilmoqda. XXI asrda ta'lim tizimining asosiy vazifasi nafaqat o'quvchilarga bilim berish, balki ularni tez o'zgarib borayotgan jamiyat sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Bugungi kunda shaxsning faqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi yetarli emas, balki unda tanqidiy va kreativ fikrlash, muloqot va hamkorlik, raqamli madaniyat, muammolarni hal qilish, mas'uliyatlilik hamda o'zini boshqarish kabi XXI asr kompetensiyalari shakllangan bo'lishi zarur. Shu sababli tarbiya jarayonida XXI asr kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini o'rganish, ularning didaktik mexanizmlarini aniqlash hamda pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Asosiy qism. Mamlakatimizda XXI asr kompetensiyalarini tarbiya jarayoniga tatbiq etish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy izlanishlar olib boilmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz». O'zbek pedagog olimlari tomonidan o'quvchi shaxsini intellektual, ma'naviy va ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, ayniqsa, so'nggi yillarda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu ilmiy izlanishlarda zamonaviy tarbiya mazmunini yangilash, kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga joriy etish hamda raqamli avlod bilan samarali ishlashning nazariy-huquqiy va metodik asoslari keng yoritilgan. Kompetensiya — bu bilim, ko'nikma va malakalarning muayyan faoliyat sohasida qo'llanilishi hamda ulardan samarali foydalanish qobiliyatidir. Ma'naviy va axloqiy kompetensiyalar o'quvchilarning shaxs sifatida kamol topishida muhim o'rin egallaydi. Ular o'quvchining ijtimoiy hamda axloqiy xulq-atvori, jamiyatdagi mavqeini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Ma'naviy kompetensiyalar o'quvchilarda insoniy qadriyatlarni anglash, estetik didni shakllantirish va madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Axloqiy kompetensiyalar esa o'quvchilarda adolat, halollik, mehnatsevarlik va vatanparvarlik kabi axloqiy qadriyatlarni to'g'ri anglash hamda ularni amaliy faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini rivojlantiradi. Tarbiya fani, o'quvchilarda yuqoridagi kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita



hisoblanadi. Tarbiya fani o'quvchilarda hayotiy muammo va qiyinchiliklarda to'g'ri va mustaqil qaror qabul qilishga yordam beradi. O'z atrofidagi ijtimoiy va madaniy muhitni anglashga o'rgatadi. Tarbiya fanining ta'lim jarayonidagi roli uning o'quvchilarga axloqiy savodxonlikni oshirishga, yaxshi va yomonni ajrata olishga, ijtimoiy mas'uliyatni his etishga o'rgatish bilan bog'liqdir. O'quvchilarda ma'naviy va axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishda tarbiya fanining o'rni va metodologiyasini o'rganish maqsadida bir nechta metodologik yondashuvlar va metodlar qo'llanildi. Tadqiqotning metodologiyasi o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'rgatish va tarbiya fanining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Tadqiqotda foydalanilgan metodologik yondashuvlar quyidagicha:

1. Tahliliy metodologiya: Tarbiya fanining ma'naviy va axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyatini o'rganish uchun o'quv dasturlari, o'quvchilarga beriladigan ta'lim materiallari, o'qituvchilarning ishlatadigan metodlari va pedagogik yondashuvlari tahlil qilinadi. Tahlil jarayonida tarbiya fanining kontseptsiyasi, vazifalari va metodlari o'rganilib, uning samarali ishlashi uchun qanday elementlar kerakligi aniqlangan.


2. Integrativ yondashuv: Tarbiya fani o'quvchilarda ma'naviy va axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishda integrativ yondashuv qo'llanildi. Bu yondashuv o'quvchilarni faqat axloqiy qadriyatlar bilan tanishtirish emas, balki ularni turli interaktiv faoliyatlar, guruhli ishlar, munozaralar orqali o'rgatishni nazarda tutadi. Shuningdek, bu yondashuv o'quvchilarni o'zaro hurmat, mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, ijtimoiy adolat va boshqa axloqiy fazilatlar bilan rivojlantirishga yo'naltirilgan.

3. Amaliy metodologiya: Tarbiya fanining amaliy metodlari orqali o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi o'rganiladi. Bu jarayonda o'qituvchilar tomonidan qo'llaniladigan dars usullari, mashg'ulotlar va bahs-munozaralar metodlari asosida o'quvchilarning rivojlanish darajasi kuzatildi. O'quvchilarga amaliy mashg'ulotlar va o'rganish jarayonida ishlatiladigan pedagogik vositalar yordamida samarali o'qitish metodlari tanlanadi.

4. Tajriba va amaliy mashg'ulotlar metodologiyasi: O'quvchilarda axloqiy va ma'naviy kompetensiyalarni shakllantirishda tajriba va amaliy mashg'ulotlarning o'rni katta. Tarbiya fani darslarida o'quvchilarga nazariy bilimlar bilan birga amaliyotda qo'llaniladigan metodlar (masalan, rolli o'yinlar, ijtimoiy loyihalar) orqali ularga axloqiy qarorlar qabul qilish va ijtimoiy mas'uliyatni his qilish ko'nikmalari beriladi. Ushbu metodologiya

o'quvchilarning bilimlarini amaliyotda qo'llashni o'rgatadi va ularga real hayotdagi vaziyatlarga qanday munosabatda bo'lishni ko'rsatadi. Shuningdek, o'quvchilarning darsdagi faoliyati va shaxsiy o'sishlarini kuzatish orqali tarbiya fanining ta'siri va metodlarning samaradorligi baholandi. Tarbiya fani mazmunini o'zgartirmay, uning shaklini zamonaviy metod va o'yinlar asosida tashkil etish o'quvchilar uchun ham qiziqarli, ham samarali natija beradi. Bunday yondashuv orqali nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishi ortadi, balki pedagogik jarayon ham o'z oldiga qo'ygan maqsadga muvaffaqiyatli erishadi. O'quvchilarga ma'naviy va axloqiy qadriyatlar haqida muntazam fikr yuritish, muammolar yuzasidan turli qarashlarni tinglash hamda o'z fikrlarini erkin ifodalash imkoniyatini yaratish ularning shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarni zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatli yashashga tayyorlash uchun, ularni faqat bilim bilan emas, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan ham tayyorlash zarur.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, mustahkam ma'naviy immunitetli, o'zining fikrlarini ravon ayta oladigan, yuqori marralarga erishuvchan avlodni tarbiyalash uchun ota-ona, oila muhiti juda katta ahamiyat kasb etadi. Sababi, tarbiya jarayonida hamkorlik bo'lsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar sharoitida o'quvchi shaxsida tayanch kompetensiyalarni shakllantirish faqatgina ta'lim muassasasi doirasida cheklanib qolmasdan, balki oila, maktab va jamiyatning o'zaro uzviy integratsiyalashuvini talab etadi. Ushbu integrativ pedagogik tizimning mohiyati shundaki, unda oila ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning birlamchi manbasi, maktab ilmiy-nazariy bilimlarning tizimli yetkazuvchisi, jamiyat esa ushbu bilimlarni ijtimoiy amaliyotda sinovdan o'tkazish va ko'nikmaga aylantirish maydoni sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur uchlik ittifoqi doirasida o'quvchilarda kommunikativ, axborot bilan ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish kabi kompetensiyalarni qaror toptirish jarayoni uzluksiz xarakter kasb etib, o'quvchining darsda olgan nazariy tushunchalari, oiladagi tarbiya va jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar bilan uyg'unlashadi. Natijada, yosh avlodda nafaqat intellektual salohiyat, balki o'zgaruvchan hayotiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, jamoada samarali ishlash va ijtimoiy mas'uliyatni anglash kabi hayotiy muhim malakalar yaxlit tizim sifatida shakllanadi. Bu esa ta'lim sifatini yangi bosqichga ko'tarishning pedagogik kafolati bo'lib xizmat qiladi. Yosh avlodni yaxshi xulqli, vatanga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, harakteriga ahamiyat berish lozim. Chunki bularsiz tarbiyada



ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Mahalla, maktab, oila hamkorligining ijobiy tomonlari shundaki - bolaning dunyoviy bilimga ega bo'lish, fikrlarning keng bo'lishi, noto'g'ri ta'sirlarga berilmasligi, uyda, maktabda bo'sh vaqtini unumli o'tkazishni taminlashga va xalqiga, jamiyatga foyda keltiradigan shaxs bo'lib ulg'ayishiga yordam beradi. Tarbiyada raqamli texnologiyalar, multimediali vositalar, loyiha faoliyati, muammoli vaziyatlar va guruhli ishlar qo'llanilishi o'quvchilarning zamonaviy ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son. 2019-yil 31-dekabr. O'z.Res.VQ.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. 2017 yil 7- fevral. PF-4947- son.
3. Abdurahmonov, R. (2020). Pedagogik jarayonlarda axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish. Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti Nashriyoti.
4. Tursunov, F. (2017). Ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy-psixologik asoslari. Toshkent: O'qituvchi.
5. Tashkent, S. (2020). Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va axloqiy kompetensiyalar. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.

